



ADOLATLI QONUNCHILIK-QILMISHNI JINOIYLIGINI ISTISNO ETISHNI BELGILAYDI.

Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna

NamDU dotsenti

Annotatsiya: Maqolada adolatli qonunchilik qilmishlarning jinoiyligini istisno etuvchi normalarni belgilashi yozilgan. Qilmishning jinoyat deb topilishini istisno etuvchi xolatlar taxlil etilgan.

Kalit so'zlar: Qonun, qilmish, jinoyat, liberallashtirish, oxirgi zarurat, zaruriy mudofa, kasb, tavakkalchilik.

Аннотация: В статье написано, что справедливое законодательство устанавливает нормы, исключаящие преступность деяний. Проанализированы обстоятельства, исключаящие признание деяния преступлением.

Ключевые слова: закон, деяние, преступление, либерализация, крайняя необходимость, необходимая защита, профессия, риск.

Annotation: The article says that fair legislation establishes norms that exclude criminality of acts. The circumstances excluding the recognition of the act as a crime are analyzed.

Keywords: law, deed, crime, liberalization, extreme necessity, necessary protection, profession, risk

Qonunlar inson uchun, insonning baxt-saodati uchun qabul qilinishi kerak. Qayerda adolan bo'lsa, shu joyda oilalar tinch va jamiyat farovon bo'ladi. Insonlar adolat bilan tarbiyalangan joyda qonunlarimiz ularni manfaatlarini himoya qiladi.

Qonunlar ustuvor mamlakatda jinoyatchilik bo'lmaydi. Qonunlarni taraqqiyot uchun qabul qilinadi

Kuchli davlatdan kuchki fuqarolik jamiyati qurish sari borayotgan mamlakatimizda adolat ustuvorligini ta'minlash borasida strategik hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan qabul qilingan "Xarakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi" kabi dasturlarimizda sud, huquq islohotlariga aloxida e'tibor qaratilgan.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin qabul qilingan jinoyat kodeksiga asosan jazolarni liberallashtirilishi xisobiga ko'p o'zgarishlar kiritildi.

Bu borada ustoz olim, Rustamboyev ham o'z fikrini shunday bayon qilgan:- "Davlatimiz tomonidan hozirgi kunda sud-huquq islohotlari olib borilayotgan bir vaqtda jinoyat qonunchiligi ham tobora takomillashib, rivojlanib bormoqa. Jumladan, sud-huquq tizimini liberallashtirilishi".

Davlatchiligimiz taraqqiyoti ilk damlarida insonparvarlik tamoyiliga asoslanib huquq sohalari taraqqiy etdi. Mamlakatimizda keig qamrovli sud-huquq islohotlari amalga oshirildi va davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida birinchi Prezidentimiz davlatimizning ichki



va tashqi siyosati, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalaridagi islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha asosiy vazifalar to'g'risidagi maruzasida uzoq muddatga mo'ljallangan dasturilamal nazariy fikr va g'oyalarni bildirgan, jumladan, "Qonunlar so'zsiz bajarilgandagina biz huquqiy davlat qurishimiz mumkin," -deb ta'kidlagan.

Xususan, jinoyat qonunchiligi va uni qo'llashda adolatga tayanish zarur.

Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun jinoyat kodeksi javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini belgilaydi.

Qilmishda jinoyat kodeksida nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo'lsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g'ayriqonuniy yoki aybli bo'lmasa, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi, deb tushuncha berilgan.

Quyidagi holatlar:

- ya'ni kam ahamiyatli qilmishlar;
- zaruriy mudofaa;
- oxirgi zarurat;
- ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab chog'ida zarar yetkazish;
- buyruqni yoki boshqacha tarzidagi vazifani bajarish;
- kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilik;
- jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish natijasida qilmish sodir etish jinoyatni istisno qiluvchi holatlar deb topiladi.

Jamiyatning qaysidir g'arazli qatlami tomonidan qonunbuzish holatlari uchraydi. Bu qatlam qilmishni sodir etishda o'z manfaatlarini imondan yuqori qo'yadi.

Lekin jamiyatning shunday qatlami bo'ladiki, sodir etgan qilmishi o'z erkidan tashqarida bo'ladi.

Ko'rsatib o'tilgan qilmishlar shuning uchun ham jinoiyligi qonunda istisno etilgan.

Qabul qilingan normalarimizning falsafiy jihatini belgilovchi omil shundaki, sodir etilgan qilmishda maqsad garazli manfaat bo'lmaydi.

Huquqshunos olimlarimiz tomonidan bu xolatning ijtimoiy falsafiy jihatlari mohiyatan o'rganilgan.

Olimlarimiz fikriga ko'ra, -"sudda ko'rilib, jinoiy javobgarlikka loyiq deb topilgan ishlar o'zining ob'ektiv va sub'ektiv belgilariga ko'ra jinoiy qilmishdan iborat bo'ladi. Ayrim xollarda bunday qilmishlar ijtimoiy xavfli bo'lmasdan, balki ijtimoiy foydali bo'lishi xam mumkin. Bunday harakatlar jinoyat huquqida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb ataladi ".



Jinoyat huquqida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi shunday holatlar mavjudki, ular tashqi tomondan jinoyatga o'xshasada, biroq jinoiy javobgarlikka loyiq, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan munosabatlarga zarar etkazuvchi ijtimoiy xavfli qilmish, deb topilmaydi, aksincha ijtimoiy foydali hisoblanadi. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar deyilganida jinoyat belgilari mavjud bo'lsa xam, jinoyat deb hisoblanmaydigan xarakatlar tushuniladi. Bunday holatlarning Jinoyat kodeksidagi belgilanishi insonparvarlik va adolat tamoyillariga amal kilinganligidan darak beradi. Bunday holatlar ijtimoiy foydalilik hisoblanadi va ularning sodir etishiga qonunda yo'l qo'yilgan. Jinoyat kodeksida qilmishning jinoiyligini istisno kilidigan holatlarning belgilanishi: bir tomondan jinoiy repressiya choralarining kamayishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan fuqarolarning huquqiy faolligini kuchaytiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. РУСТАМБОВЕВ. Жиноят ҳуқуқи. Дарслик. М.Ҳ.Тошкент – “ILM ZIYO” – 2006., 564 b
2. Каримов. И.А. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Т.: “Ўзбекистон”, 2005 й.
3. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. INSON HUQUQLARI XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY GENDER MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 33-SON 20.10.2024. 166-170-betlar.
4. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta'minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o'rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7, ISSUE 10 (30- OCTOBER)
5. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila ma'naviyati-jamiat taraqqiyoti omili. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106- 112
6. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135.
7. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ХУҚУҚИЙ СОҲАДА АЁЛ СИЙМОСИ. MODERN WORLD EDUCATION: NEW AGE PROBLEMS – NEW SOLUTIONS. International online conference. Date: 3 rdFebruary-2025. 40-43-betlar
8. Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna. OILA GENEZISI. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 8, Issue 03, March (2025). 231-235-betlar



9. Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna. OILADA MAS'ULIYAT. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 8, Issue 03, March (2025).227-230-betlar